

## MIRTEMIR SHE'RIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10184586>

**Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna**

*Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Ko'l-u tog'lik, bog'i rog'lik o'zbek elim,  
Momo yurti, bob yurti Chambilbelim.  
Zar-u gavhar- yaltiroq tosh nedir olmos,  
Sen biz uchun ham non,ham osh,mangu meros.*

Ha, o'zbek elining beqiyos chamanini tilloyi zar oltin, olmosdanda nodir bezaklar ila ta'riflagan buyuk shoir,Xxasr o'zbek she'riyatiga o'zining she'rlari bilan salmoqli xissa qo'shgan har bir kitobxon qalbiga yo'l topgan adib Mirtemirdir. Asl ismi sharifi Mirtemir Tursunov bo'lgan shoir hayot yo'liga nazar tashlamoqchi bo'lsak, atoqli shoir, adabiyotshunos, tarjimon Mirtemir Tuersunov 1910 yil hozirgi Qozog'istonning Turkiston shahriga yaqin Iqon qishlog'ida tug'ilgan . Soir dastlabki ta'limini bobosidan so'ng esa eski maktabda olgan Toshkentga kelib "Almai" nomidagi maktabda tahsil olgan.Mirtemir o'rta maktabni tugatib, O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasiga o'qiydi.Mirtemir o'qishni bitirib , maktablarda muallimlik qiladi,nashriyotlarda hamda Yozuvchilar uyushmasida ishlaydi.

Shoir adabiyot maydoniga juda erta kirib keladi .O'zining ilk ijod namunalarini matbuot maydoniga olib kiradi.1926 yilda ya'ni 16 yoshida "Tanburum ovozi" deb nomlangan shoirning ilk she'ri e'lon qilinadi. Oradan ikki yil o'tib 1928 yilda esa shoirning ilk she'riy to'plami "Shulalar qo'ynida" nomi bilan nashrga chiqariladi. Shu tarika shoirning o'nga yaqin she'riy to'plamlari kitobxonlar qo'liga yetib borib qalbidan munosib o'rin egallaydi. Jumladan shoirning "Bong", "poytaxt", "O'ch", "Surat", "Qaraqalpoq daftari", "Tingla hayot" ,"Izlaganim", "Tog'day tayanchim" hamda umrining so'ngi yillarida yozligan "Yodgorlik" deb nomlangan to'plamlari eng nodir to'plamlar sanaladi.

Adib ijodi davomida tarjima sohasida ham barakali ijod qildi. Antik dunyo shoirlari Homer, Sh. Rustaveli, H.Heyne, R.Tagor, Maxtumquli, Berdaq, N.Hikmat she'riy asarlarini mohirona tarjima qilgan bo'lsa, "Manas" Qirg'iz xalq eposini, "Qirqqiz" Qoraqlpoq eposini o'zbek tiliga mohirona tarjima qildi.Atoqli adib 68 yil umr ko'rdi. O'tgan umrining deyarli to'liq qismini adabiyotga, ijodga baxshida

etdi. Adibning serqirra ijodi yuksak baholanib mustaqillik yillarida "Buyuk xizmatlari uchun" orderi bilan taqdirlandi. Shoirning avlodlarga qoldirgan merosi ardoqlanib, to'rt jidlik "Asarlar"i nashr etildi.

XX asr o'zbek adabiyotida Mirtemir she'riyatining o'rni beqiyosdir. Mirtemir she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, she'rlarining mazmuni teranva uslubi sodda va ravon. Shoir she'rlarida tabiat va inson hayotining hilma hil ko'rinishlari taassurot va kechinmalari g'oyat topqirlik va noziklik bilna aks ettirilgan. uning tabiat xodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go'zal qiyoslashlar hamda betakror obrazlar orqali ifoda etgan. Jumladan, shoirning "Bulut", "Shudring" she'rlari shular jumlasidandir.

Ko'k yuzida pag'a bulit oq bulut,  
Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut.  
Pag'a bulut yaxshi ko'klam elchisi,  
Havolarda yomg'ir isi, sel isi.

Bulut -yomg'ir elchisi darhaqiqat ko'k yuzini qoplagan bulutdan so'ng albatta, yomg'ir yog'adi, yomg'ir yog'ish daragini esa bulut beradi. Ha, shoirning bu satrlarini o'qir ekanmiz shoirning naqadar o'xshatishga boy tasvirlar qo'llanganligini hamda yog'ayotgan yomg'ir aslida nima u? O'tmi?, sutmi?, qutmi? Deya ta'riflaydi. Shoir ushbu she'ri orqali ko'k yuzida pag'alab turgan bulut yomg'ir bo'lib yerga tushishini hamda yomg'ir tomchilari yerni ko'kalamlashtirishiva bu ko'klamdan chorva mollari iste'mol qilib sut bo'lishi va xonadonlarga qut- baraka keltirishini chiroyli o'xshatishlar orqali tasvirlagan.

Mirtemirning "shudring" she'ri haqida fikr yuritadigan bo'lsak, shoirning ushbu she'ri boshqa she'rlardan xoli o'laroq sarlavhada keltirilgan shudring so'zi she'r matnida umuman keltirilmagan. Xo'sh, unda nima uchun she'r mavzusi "Shudring" Shoirning ushbu she'ridagi mahorati shundaki, kuz faslining saxar tonggida dalalarda ko'zmunchoqday go'zal tomchilarga guvoh bo'lamiz. Shoir ham shudringni ko'rib ilhom bilan shudring so'zini boshqa tasvir vositalari orqali o'xshatgan va bezatgan. Shoir shudringga ta'rif berib uni kelinlar taqinchog'i, ko'zmunchoq, uzukning ko'ziga hamda qizlarning suzuk ko'ziga o'xshatgan. Shoirning bu o'shatishlarining guvohi bo'lib uning qanchalik so'z qo'llash mahorati yuksak ekanligiga amin bo'lamiz. She'rning eng kuchli kulminatsion, emotsional misralarini o'qib shoirning dunyoqarashi kengligi hamda tasvir mahorati yuksakligiga guvoh bo'lamiz. Cunonch:

Yo'q bu giryon ko'zlarning yarqiroq zamzamasi,  
Kechasi onam tag'in uxlabtida chamasi.

Qarang naqadar go'zal o'xshatishlar. Shoir o'z she'rida shudringni ta'riflarkan yo'q hali bu bu shudring onamning giryon ko'zlaridan oqqan zamzam tomchilari deya ta'riflab onasining farzandidan berkitib tunda iztirob bilan yig'lagan ko'z yoshi deya ta'rifini yakunlaydi.

Mirtemir she'riyatida kindik qoni to'kilgan diyor mavzusi, tabiat maavzusi bilan bira qatorda ona mavzusi ham shoir ijodining yirik qismini tashkil qiladi. Adibning "Sen -ona" she'ri orqali onaning buyukligi, ne-ne buyuk insonlarni dunyoga keltirib kamol toptirgan mushfiq ayolni shunday ta'riflaydi:

Alisherga alla aytib uxlatgan

Sen-ona,

Og'ushida Bobur kamolga yetgan

Sen-ona,

Olamni nurga munavvar etgan

Sen-ona

Yig'lasa dunyoni raso titratgan

Sen-ona !!!

Ona... Har bir insonni to'qqiz oy vujudida dunyoga kelishini intizorlik bilan kutgan ayo. Ona..... ne-ne buyuk insonlarni tarbiyalagan olima. Ona..... sen uchun dunyolarni berishga tayyor bo'lgan evaziga sendan hech nima kutmaydigan mushfiqa. Shoir ushbu she'rida onani kim? Va qanday? Ekanligini mahorat bilan ta'riflagan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shoir Mirtemir ijodi haqiqatan yuksak va abadiydir . Shoir she'rini o'qigan har bir inson qalbiga Vatanga bo'lgan muhabbat, ota -onaga bo'lgan qadr, tinchlikka bo'lgan shukronalik tuyg'usi jo'sh uradi desam mubolag'a bo'lmas.